



TOG'AY MUROD ASARLARIDA XALQ QO'SHIQLARI TASNIFI

Mamataliyeva Oydin Muhammad qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tog'ay Murod asarlarida xalq qo'shiqlarining ishlatilishi, xalqimiz hayotida qo'shiqlarning ahamiyati, eng dilbar qissalari "Oydinda yurgan odamlar" va "Yulduzlar mangu yonadi" zamirlarida umrboqiy va umuminsoniy qadriyatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, "alla", "turey-turey", marsiya, "mayda-yo, mayda".

Xalq qo'shiqlari har bir joyning jug'rofiy tuzilishi, iqlimiga, urf-odatlariga, o'tkaziladigan marosimlariga monad tarzda o'sha yurtning turli yoshdagi vakillari tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Xalq qo'shiqlari juda qadimiy tarixga ega. Ular dastlab mehnat jarayonida paydo bo'lgan. Qo'shiqlarda xalqning orzu-umidlari, zavq-shavqi, quvonch va iztiroblari mujassamlashgan. Xalq qo'shiqlarida ko'pchilikning his-tuyg'ulari umumlashtirilgan holda yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiriladi. Xalq qo'shiqlari kundalik hayotni bezovchi ko'ngil mulki deb ham aytiladi. Xalqlar o'z quvonchini, shodligini va g'am-hasratini aynan qo'shiqlarda namoyon etgan lirik qo'shiqlar, termalar, yillar davomida sayqallanib bizgacha yetib kelgan. Turkiy xalqlar og'zaki ijodida, hatto, eramizdan avval ham qo'shiq janriga mansub asarlar borligi ma'lum. Nisbatan keyingi namunalar esa Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridan ham o'rin olgan. Mahmud Koshg'ariy yozib olgan qo'shiqlar, asosan, mehnat (ov) qo'shiqlari, qahramonlik, mavsum-marosim va lirik asarlardan iborat.

Qo'shiq janri juda murakkab ruhiy kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi. Qo'shiqning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Unda inson kechinmalari, quvonch va iztiroblari, qalb so'zlari aks etadi.
2. Qo'shiq shaklan she'riy tarzda bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznida, ba'zan aruzda yaratiladi.
3. Ko'pincha, xalq qo'shiqlari to'rt misradan iborat bo'lib, tugal ruhiy holatni ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.
4. Qo'shiqning kuyi bo'ladi va ana shu kuy jo'rligida ijro etiladi.



Hozirgi paytda ham qo'shiqlar xalq hayotiga hamrohdir. Ularda mehnat, tarixiy voqealarga munosabat, mavsum-marosimdagi urf-odatlar, qolaversa, yosh yigit-qizlarning ishqiy kechinmalari o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan xalq qo'shiqlarimizni quyidagi turlarga bo'lib o'rganishimiz va tahlil qilishimiz mumkin:

1. Mehnat qo'shiqlari.
2. Mavsum-marosim qo'shiqlari.
3. Lirik (ishqiy) qo'shiqlari.
4. Tarixiy qo'shiqlar.

O'zbek adabiyotida xalq og'zaki ijodi namunalaridan sermahsul foydalanib asar yaratgan adiblarimiz anchagina. Bulardan eng ko'zga ko'ringanlaridan biri Surxondaryo viloyati Denov tumanida tug'ilgan Tog'ay Muroddir. Tog'ay Murod asarlari samimiyligi, tilining soddaligi, ayniqsa, "chapani" so'z va iboralarning qatnashganligi bilan boshqa asarlardan farq qiladi. Adib o'quvchini qiziqtirish, o'ziga jalb qilish uchun asarlarida takror so'zlardan, hikoyat va rivoyatlardan hamda xalq qo'shiqlaridan unumli foydalangan. Misol uchun, "Oydinda yurgan odamlar" qissasini oladigan bo'lsak, unda Oymomo tilidan kuylangan "turey-turey", "alla" qo'shiqlari, Oymomo vafot etganda esa momolar tilidan aytilgan marsiyalar asarda o'zgacha ruh baxsh etadi.

Qoy sog'aman qo'shoqda, turey-turey,
 Qo'y ishq menga yoqqan, turey-turey.
 Qo'y sutini ichganlar turey-turey,
 Kundan-kun shifo topgan, turey-turey...¹
 Alla-alla, ahdi bor-a, alla-yo, alla-yo,
 Uyquning ham vaqti bor-a, alla-yo, alla-yo,
 Alla aytgan enangni, alla-yo, alla-yo,
 Qop-qoraygan baxti bor-a, alla-yo, alla-yo.²
 Hovlimizning tolini
 Tobut bo'lsin, debmidik
 Voy enam-ovv, enam-ovv!...³

"Yulduzlar mangu yonadi" asari adabiyotimizda katta ahamiyatga ega qissalardan hisoblanadi. Asarda xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy kurashning betakror surati bilan bir qatorda, xalq qo'shiqlari ham talqin qilingan. Masalan, Momoqizning bug'doy o'rimi paytidagi, Bo'ri polvonning xirmon yanchish paytidagi "Mayda-yo, mayda" qo'shiqlari asar jozibasini yana-da oshirgan. Bo'ri polvon aytgan qo'shiq nafaqat ho'kizlarga qarata, balki yaqin do'sti Nasimning xiyonati, sevgan qizi Momoqizga ko'z olaytirganini ich-chidan alam bilan kuylaydi.



Momo o'zi yaxshi qiz, mayda-yo, mayda-yo,
Mayda bilan to'qmiz biz, mayda-yo, mayda-yo.⁴

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodining bu turi inson ma'naviyatini o'stiruvchi, o'zbek milliy madaniyati ko'zgusi, barcha e'tirof etadigan benazir qadriyat hisoblanadi. Bebaho qadriyatimiz hisoblangan xalq qo'shiqlarini hayotimizga tadbiq etish orqali xalqning, jamiyatning milliyligini yana yuklsaltirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.Madayev, M.Jo'rayev, T.Sobitova, N.Muxitdinova "O'zbek folklori". T-2022. "Zebo print" nashriyoti.
2. T.Murod "Oydinda yurgan odamlar". T-2017. "Sano-standart" nashriyoti.
3. T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi". T-2020. "Ziyo nashr".
4. www.ziyo.net.